O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Farg‘ona davlat texnika universiteti
rektori R.R.Tojiyev
_____
“ 3 ” 11 2026-yil

08.00.03 – SANOAT IQTISODIYOTI

ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura(PhD) va mustaqil izlanuvchilikga qabul qilish bo‘yicha

DASTUR VA BAHOLASH MEZONLARI

Farg‘ona - 2026

Ismanov I.N., Muminova E.A., Davlyatova G.M., Ilyosov A.A. 08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni dasturi. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2026. – 16 b.

Kirish imtihoni dasturi va baholash mezonlari “Iqtisodiyot” kafedrasi yig‘ilishida muhokama qilingan 2026-yil __-_____, bayon №__ . Farg‘ona davlat texnika universiteti Ilmiy Kengashining 2026-yil “_____” _____da bo‘lib o‘tgan majlisida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Ushbu imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-yanvardagi 220/2-sonli “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaroriga muvofiq tayyorlangan.

Taqrizchilar:

Umarov I.Yu.	-	Andijon davlat universiteti professori, i.f.d., prof.
Butaboyev M.T.		Farg‘ona davlat texnika universiteti professori, i.f.d., prof.
Kambarov J.X.	-	Qo‘qon universiteti prorektori, i.f.d., dots.

© Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2026-yil

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi bo‘lgan tarkibiy o‘zgarishlar siyosati ustuvor soha va sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish asosida milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirish, uning raqobatbardoshligini yuksaltirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishni ko‘zda tutadi. Sanoat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari va mehnat qurollari bilan ta’minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalarning rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog‘liq.

Xalqaro iqtisodiy raqobat texnik taraqqiyotning eng muhim omili hisoblanadi. Uning ta’sirida ishlab chiqarish va boshqaruv texnologiyalari doimiy yangilanib boradi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari kengayadi va sifati ortadi. Bugungi kunda bu jarayonga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning sanoatga keng joriy etilishi ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida 2026-yilda amalga oshiriladigan oltita ustuvor yo‘nalishni belgiladi. Ulardan ikkinchisi iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish bo‘lib, 2026-yilda 52 milliard dollarlik 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start berilishi ko‘zda tutilgan. Murojaatnomada iqtisodiyotni raqobatdosh qilish, investitsiyalar samaradorligini oshirish va sanoat tarmoqlarini texnologik transformatsiya qilish mutlaqo yangicha yondashuvlarni talab etishi ham ta’kidlandi. Shuningdek, Prezident qo‘shilgan qiymat yaratishga alohida e’tibor qaratdi va investitsiya siyosatida miqdor emas, sifat ustuvor bo‘lishi lozimligini aytdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tajribasidan ma’lumki, mamlakat iqtisodiyoti uning rivojlanishidagi ob’ektiv qonuniyatlarni, iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlarni, milliy qadriyat va xususiyatlarni, ma’naviy boyliklarni to‘la hisobga oluvchi mukammal iqtisodiy siyosat ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgandagina barqaror va mutanosib rivojlana oladi. Shu bois iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish davlat siyosatining doimiy e’tibor markazida turibdi. Mamlakatning jahon xo‘jaligi tizimiga faol integratsiyalashuvi raqobatdoshlik muammosiga alohida ahamiyat berishni taqozo etadi. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ya’ni ularni texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiyalash, zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarini bunyod etish o‘ta muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Strategik maqsadlar ham shu yo‘nalishni belgilaydi: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yangilanayotgan tahririda 2030-yilga borib mamlakatning jahon bozorida tayyor mahsulot yetkazib beruvchi yetakchi davlatlardan biriga aylanishi va eksport hajmining oshirilishi nazarda tutilgan. Eksport hajmini 2030-yilga qadar

45 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, buning uchun an’anaviy bozorlar bilan cheklanmasdan yuqori marjali yangi bozorlarga chiqish zarur.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning qaysi modelini tanlamasin, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligidagi mavqei va o‘rni uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Bu o‘rinda sanoatni rivojlantirish muammolarini ilmiy asosda hal eta oladigan ilmiy-pedagogik kadrlarning o‘rni va ishtiroki muhimdir.

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarga asoslanadi. Bu mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi. Ayniqsa, globallashuv va integratsiya jarayonlari tezlashayotgan hozirgi sharoitda sanoatni rivojlantirish sohasidagi xalqaro standartlarni mamlakatimizda qo‘llash bo‘yicha ishlarni olib borish dolzarb masala hisoblanadi.

Dasturda qo‘yilgan mavzu va masalalar “Sanoat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha talabgorlarning shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmaydi. Ular talabgor sohadagi muammolarni va ularning yechimlarini topish bo‘yicha bilimga ega ekanini namoyish eta olishini ham talab etadi.

Sanoat - milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i

Sanoatning iqtisodiy o'sishdagi o'rni, YaIMdagi ulushi, ish bilan bandlik va eksportdagi roli. O'zbekiston sanoatining asosiy ko'rsatkichlari va dinamikasi (so'nggi 10 yil). Tarmoqlar: energetika, neft-gaz, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati. Sanoatning tarixiy rivojlanishi (qisqa, asosan mustaqillik davri). O'zbekistonning jahon sanoat ishlab chiqarishi va global qiymat zanjirlaridagi o'rni. Sanoat siyosati va uning hozirgi me'yoriy asoslari ("O'zbekiston – 2030" strategiyasi va sanoatga oid dasturlar). Deindustrializatsiya va reindustrializatsiya tushunchalari.

Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar

Tuzilma siyosati, uning mohiyati va ahamiyati. Sanoat tarmoq tuzilmasi, uning ko'rsatkichlari va belgilovchi omillar. Yuqori, o'rta va past texnologiyali tarmoqlar tasnifi (OECD/UNIDO yondashuvi). Tarkibiy siljishlarning progressivlik mezonlari. Chuqur qayta ishlash va qo'shilgan qiymat zanjirlarini kengaytirish. Iqtisodiy murakkablik indeksi (ECI) va sanoatni diversifikatsiya qilish. Import o'rnini bosish va eksportga yo'naltirilgan sanoat

Sanoatda zamonaviy boshqaruv tizimi

Boshqaruvning mohiyati, tamoyillari va usullari. Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari: Lean, Six Sigma, TQM, Agile, KPI/OKR. Korporativ boshqaruv va davlat ulushi bo'lgan korxonalarni isloh qilish. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh).

Raqamli boshqaruv: ERP, MES, SCADA tizimlari va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar. Sanoat korxonalarida risklarni boshqarish va ta'minot zanjiri boshqaruvi.

Sanoat ishlab chiqarishini bashoratlash va rejalashtirish

Prognozlash: mohiyati, usullari (ekonometrik, stsenariy, ekspert baholash). Rejalashtirish: strategik, indikativ, biznes-reja. Tarmoq va korxona darajasida rejalashtirish metodologiyasi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va tarmoq dasturlari doirasidagi bashoratlar. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida talabni prognozlash. Texnologik foresight va yo'l xaritalari (roadmapping).

Sanoat iqtisodiyot ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

Samaradorlik mohiyati, mezoni va ko'rsatkichlar tizimi. Qiyosiy samaradorlik, keltirilgan xarajatlar, yillik iqtisodiy samara. Mehnat unumdorligi, kapital unumdorligi (fond qaytimi), umumiy omil unumdorligi (TFP). Energiya samaradorligi va resurs samaradorligi. OEE (uskunalarning umumiy samaradorligi) ko'rsatkichi. Investitsiya loyihalarini baholash: NPV, IRR, payback period. Ijtimoiy-ekologik samaradorlik, ESG ko'rsatkichlari.

Sanoat iqtisodiyotida fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat

Fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion iqtisodiyot. Sanoat 4.0 (Industry 4.0): mohiyati, tarixiy bosqichlari (1.0 → 4.0), asosiy texnologiyalari: IoT, kiberfizik tizimlar, Big Data, bulutli hisoblash, raqamli egizak (digital twin). Sun'iy intellekt, mashinali o'rganish va robototexnika sanoatda. Additiv texnologiyalar (3D bosib chiqarish) va aqlli ishlab chiqarish (smart factory). Sanoat 5.0: inson-markazli yondashuv, barqarorlik, bardoshlilik. Sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi va "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi. Kiberxavfsizlik sanoat tizimlarida. Innovatsion ekotizim: texnoparklar, startaplar, texnologiyalar transferi, intellektual mulk. Biotexnologiya va nanotexnologiya, yangi materiallar, vodorod texnologiyalari. Yoqilg'i-energetika majmuasi: qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol), energiya saqlash tizimlari.

Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish

Konsentratsiya, ixtisoslashuv, kooperatsiya, diversifikatsiya: zamonaviy shakllari va ko'rsatkichlari. Mahalliylashtirish: mohiyati, ahamiyati, mahalliylashtirish dasturlari. Sanoat klasterlari va klaster yondashuvi. Sanoat parklari, texnoparklar va ishlab chiqarish kooperatsiyasi. Ta'minot zanjirlari va outsorsing/oftshoring. Kichik va o'rta biznesning sanoatdagi roli.

Sanoat iqtisodiyotida kadrlar va mehnatga xaq to‘lash

Kadrlar siyosati, tarkibi, tayyorlash va qayta tayyorlash. Raqamli ko'nikmalar va kasblarning o'zgarishi (avtomatlashtirish ta'siri). Dual ta'lim, sanoat-universitet hamkorligi. Mehnat bozori, ish bilan bandlik, masofaviy va moslashuvchan mehnat shakllari. Ish haqi tizimi: tarif tizimi, KPI asosidagi

rag'batlantirish. Ijtimoiy himoya va mehnat xavfsizligi (OHS).

Sanoat iqtisodiyot ishlab chiqarishining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari

Asosiy fondlar: mohiyati, tarkibi, baholash usullari. Eskirish va amortizatsiya (BHMS/IFRS talablariga mos). Fond qaytimi, fond sig'imi, quvvatlardan foydalanish. Uskunalarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash. Lizing va asosiy fondlarni yangilashni moliyalashtirish. Bashoratli ta'mirlash (predictive maintenance) va aktivlarni boshqarish.

O‘zbekiston sanoatining xomashyo manbai va uni joylashtirish

Xomashyo va yoqilg'i-energetika resurslari, ularning tasnifi. O'zbekistonning mineral-xomashyo salohiyati (oltin, mis, uran, gaz, kritik minerallar). Resurslarni tejash strategiyasi. Aylanma iqtisodiyot (circular economy) va chiqindisiz texnologiyalar. Kritik xomashyo va global talab tendensiyalari. Energiya xavfsizligi va energiya o'tish (energy transition).

Sanoat ishlab chiqarishining aylanma fondlari va mablag‘lari

Aylanma fondlar va aylanma mablag'lar, aylanish ko'rsatkichlari. Material sig'imi va resurs tejamkorligi. Zaxiralarni boshqarish: JIT (Just-in-Time), ABC/XYZ tahlili. Aylanma kapitalni moliyalashtirish: bank kreditlari, faktoring, tijorat kreditlari.

Sanoat mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligi

Sifat tushunchasi, ko'rsatkichlari, baholash va boshqarish. Standartlashtirish va sertifikatlash: ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001, ISO 50001. Raqobatbardoshlik nazariyasi (M. Porter modeli) va mahsulot raqobatbardoshligini baholash. Eksport talablari: texnik reglamentlar, CE belgisi, JST (WTO) standartlari. Brend, mahsulot hayotiy sikli (PLM) va sifat nazoratida sun'iy intellekt/mashinali ko'rish.

Sanoat iqtisodiyotida tannarx, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi

Tannarx tushunchasi, turlari, elementlari va tuzilmasi. Foyda, uning shakllanishi va taqsimlanishi. Rentabellik ko'rsatkichlari (ROA, ROE, ROS) va ularni oshirish yo'llari. Xarajatlarni boshqarish usullari: ABC-costing, target costing, kaizen costing. Soliq yuki va uning tannarx va foydaga ta'siri. Energiya narxlari liberallashuvining tannarxga ta'siri.

Sanoat ishlab chiqarishida baho va baholash

Narx: iqtisodiy kategoriya sifatida, vazifalari va turlari. Davlatning narx siyosati: narxlarni liberallashtirish, tabiiy monopoliyalar tariflarini tartibga solish. Narx shakllanish usullari: xarajatli, bozor, raqobatchilarga asoslangan, dinamik narxlash. Transfer narxlari va eksport/import narxlari. Raqamli platformalar va elektron savdo orqali narx shakllanishi.

Sanoat iqtisodiyoti ishlab chiqarishini joylashtirish

Joylashtirish tamoyillari va omillari. Hududiy tashkil etish va hududiy

sanoat tuzilmasi. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va kichik sanoat zonalari: mohiyati, rivojlanishi. Sanoat klasterlari va agglomeratsiya iqtisodiyoti. Logistika, transport koridorlari va sanoat joylashuvi. Yashil sanoat zonalari va ekologik cheklovlar. Hududlarni sanoat jihatdan rivojlantirish dasturlari.

Sanoat 4.0 va raqamli transformatsiya

Sanoat inqiloblari: 1.0 dan 4.0 gacha, Sanoat 5.0 tushunchasi va ularning iqtisodiy mohiyati. Sanoat 4.0 tamoyillari: o'zaro bog'liqlik, axborot shaffofligi, markazlashmagan qarorlar, texnik yordam. Sanoat internet narsalari (IIoT): datchiklar, ulanish texnologiyalari (5G, LPWAN), real vaqtda monitoring. Kiberfizik tizimlar, Big Data va bulutli hisoblash sanoatda. Sun'iy intellekt va mashinali o'rganish: bashoratli ta'mirlash, sifat nazoratida mashinali ko'rish, talabni prognozlash. Raqamli egizak (digital twin): mohiyati, turlari (mahsulot, jarayon, korxona), qo'llanish sohalari va iqtisodiy samarasi. Aqlli ishlab chiqarish (smart factory): ERP, MES, SCADA tizimlari integratsiyasi, robototexnika va avtomatlashtirish, additiv texnologiyalar. Sanoat kiberxavfsizligi: OT/IT tizimlariga tahdidlar, xavflarni boshqarish, IEC 62443 va ISO 27001 standartlari. Raqamli transformatsiyaning bosqichlari, yetuklik modellari, investitsiya samaradorligini baholash (ROI).

Yashil sanoat va barqaror rivojlanish

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BMT BRM) va sanoatning roli. Yashil iqtisodiyot va yashil sanoat siyosati: mohiyati, tamoyillari, ko'rsatkichlari. ESG tamoyillari (ekologik, ijtimoiy, boshqaruv): mohiyati, reyting va hisobotlar (GRI, ISSB). Uglerod izi: Scope 1, 2, 3 chiqindilari, hisoblash usullari, kamaytirish strategiyalari. CBAM (Yevropa Ittifoqining uglerod chegara tartibga solish mexanizmi): mohiyati, qamrab olingan tarmoqlar va O'zbekiston eksportiga ta'siri. Uglerod bozorlari va narxlash: uglerod solig'i, emissiya savdosi, uglerod kreditlari. Qayta tiklanuvchi energiya: quyosh, shamol, gidroenergetika; vodorod energetikasi va energiya saqlash tizimlari. Energiya samaradorligi va energiya menejmenti (ISO 50001), sanoatda energiya tejash. Aylanma iqtisodiyot (circular economy): chiqindisiz ishlab chiqarish, ikkilamchi xomashyo, qayta ishlash, mahsulotni qayta ishlatish. Yashil moliyalashtirish: yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, iqlim fondlari. O'zbekistonda yashil sanoatga o'tish: me'yoriy asoslar, mavjud loyihalar va cheklovlar.

Sanoatning xalqaro integratsiyasi

Jahon xo'jaligiga integratsiya: mohiyati, shakllari va sanoat uchun ahamiyati. Jahon savdo tashkiloti (JST/WTO): qoidalari, O'zbekistonning a'zolik jarayoni va sanoatga ta'siri. Mintaqaviy integratsiya va erkin savdo: MDH, EOII, Yevropa Ittifoqi GSP+ tizimi, Markaziy Osiyo hamkorligi. Global qiymat zanjirlari (GVC): tushunchasi, tuzilishi, "tabassum egri chizig'i", O'zbekistonning zanjirdagi o'rni.

Eksport salohiyati va eksport strategiyasi: tarmoqlar, bozorlar diversifikatsiyasi, eksportni qo'llab-quvvatlash vositalari. Eksport mahsulotining raqobatbardoshligi: sifat, sertifikatlash, texnik reglamentlar, tarif va notarif to'siqlar. Xorijiy investitsiyalar va ularning sanoat rivojiga ta'siri. Texnologiyalar transferi va xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma korxonalar. Transport-logistika koridorlari va ularning eksport-import xarajatlariga ta'siri. Savdo urushlari, sanksiyalar va ta'minot zanjiridagi uzilishlar sharoitida sanoatning bardoshliligi. Sanoat siyosati va davlat qo'llab-quvvatlashi. Sanoat siyosatining mohiyati, maqsadlari va nazariy asoslari (vertikal va gorizontal siyosat). Davlat qo'llab-quvvatlash vositalari: soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, kafolatlar. Maxsus iqtisodiy hududlar: erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), texnoparklar, kichik sanoat zonalari, sanoat parklari. Mahalliylashtirish siyosati: dasturlar, mexanizmlari va natijalari. Davlat xaridlari va ularning mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishdagi roli. Davlat ulushi bo'lgan korxonalarni isloh qilish va xususiylashtirish. JST qoidalari doirasida subsidiyalar bo'yicha cheklovlar.

Sanoatda investitsiyalar va moliyalashtirish

Investitsiyalarning mohiyati, turlari va sanoat rivojidagi roli. Investitsiya muhiti va uning ko'rsatkichlari, investitsiya jozibadorligi reytinglari. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI): shakllari, jalb qilish omillari, O'zbekiston sanoatidagi dinamikasi. Investitsiya loyihalarini baholash: NPV, IRR, PI, payback period, sezgirlik va stsenariy tahlili. Loyiha moliyasi (project finance): mohiyati, ishtirokchilari, SPV tuzilmasi, risklarni taqsimlash. Moliyalashtirish manbalari: o'z mablag'lari, bank kreditlari, lizing, faktoring, kapital bozori. Davlat va korporativ obligatsiyalar, IPO/SPO va davlat korxonalarining qimmatli qog'ozlari. Xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, XTT, OTB, YeTTB, IsDB) va eksport-kredit agentliklari. Davlat byudjeti, davlat investitsiya dasturlari va davlat kafolatlari. Investitsiya risklari: valyuta, siyosiy, bozor, texnologik risklar va ularni boshqarish.

08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutining tayanch doktorantura (PhD)ga o‘qishga kirish uchun o‘tkaziladigan yozma-og‘zaki kirish imtihonida talabgorlarning bilimini baholash mezonlari

08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni tanlangan ixtisoslik bo‘yicha talabgorlarning nazariy bilimlari, ilmiy-tahliliy fikrlash qobiliyati hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma-og‘zaki shaklda o‘tkaziladi.

Talabgorlarning har bir savolga javobi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Bayon qilingan materialning to‘liqligi;
2. Javobning imtihon savoliga mantiqan mosligi;

3. Javoblarning aniqligi va mantiqiy yaxlitligi;
4. Ilmiy-uslubiy tilda savodli bayon qilinishi, aniq ta’rif va atamalardan to‘g‘ri foydalanilishi;
5. Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni amaliyot bilan bog‘lay olish, ilmiy-amaliy ahamiyatini tushunish qobiliyati;
6. Hukumat qarorlari, tegishli davlat dasturlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tushunish darajasi;
7. Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va normativ-huquqiy asoslarni anglash darajasi;
8. O‘z fikrini aniq va asosli bayon qila olish, mustaqil fikrlash hamda nazariya va amaliyotga tanqidiy yondasha olish qobiliyati.

Baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Talabgorlar imtihon biletida berilgan 4 ta savol bo‘yicha javoblarni avval yozma tarzda bayon etadilar, so‘ng ularning mazmunini imtihon komissiyasi huzurida og‘zaki himoya qiladilar. Har bir savol uchun 25 ballgacha baho qo‘yiladi (jami 100 ball).

Yozma va og‘zaki qismlar alohida imtihon sifatida emas, yagona yozma-og‘zaki imtihon natijasi sifatida baholanadi. Yozma javoblar yuqori saviyada bo‘lgan taqdirda ham, agar og‘zaki izoh yetarli bo‘lmasa yoki yozma javobni tasdiqlamasa, maksimal ball qo‘yilmaydi.

Yozma va og‘zaki javoblar o‘zaro uyg‘un bo‘lishi lozim; biri ikkinchisiga zid bo‘lgan holatlarda ball kamaytiriladi.

Baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

86-100 ball	qo‘yilgan savollarga nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondashgan holda ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javoblar keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar va xulosalar bilan boyitilgan bo‘lsa;
71-85 ball	savollarga to‘liq javob berishga harakat qilingan, nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondashuv mavjud, biroq ayrim tushunchalar va ta’sir etuvchi omillarni bayon etishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan yoki fikr va yechimlar to‘liq asoslanmagan bo‘lsa;
56-70 ball	savollar mohiyati yuzaki yoki qisman ochib berilgan, tegishli tushunchalar yetarli darajada yoritilmagan, fikr-mulohazalar va xulosalar to‘liq bayon etilmagan bo‘lsa;
0-55 ball	savollarga javob berilmagan, noto‘g‘ri talqin qilingan yoki masalaga izoh berilmagan hollarda

Imtihon komissiyasi zaruratga ko‘ra talabgorga tanlangan ixtisoslik, tadqiqot yo‘nalishi, mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari va ilmiy natijalarini qo‘llash imkoniyatlari yuzasidan qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo‘yicha imtihon savollari

1. Sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va roli: YaIMdagi ulushi, ish bilan bandlik va eksportdagi ahamiyati.
2. O‘zbekiston sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari, so‘nggi 10 yildagi dinamikasi va sanoat siyosatining me’yoriy asoslari ("O‘zbekiston – 2030" strategiyasi).
3. Jahon sanoat ishlab chiqarishi va global qiymat zanjirlarida O‘zbekiston

sanoatining o‘rni; deindustrializatsiya va reindustrializatsiya tushunchalari.

4. Sanoat tarmoq tuzilmasi, uning ko‘rsatkichlari va belgilovchi omillar; tarmoqlarning texnologik darajasi bo‘yicha tasnifi (OECD/UNIDO yondashuvi).

5. Tarkibiy siljishlarning progressivlik mezonlari; chuqur qayta ishlash, qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish, iqtisodiy murakkablik indeksi (ECI) va sanoatni diversifikatsiya qilish.

6. Sanoatda zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari (Lean, Six Sigma, TQM, Agile, KPI/OKR) va ularni korxonalarda qo‘llash imkoniyatlari.

7. Korporativ boshqaruv, davlat ulushi bo‘lgan korxonalarni isloh qilish va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari.

8. Raqamli boshqaruv tizimlari (ERP, MES, SCADA), ma’lumotlarga asoslangan qarorlar; sanoat korxonalarida risklar va ta’minot zanjirini boshqarish.

9. Sanoat ishlab chiqarishini prognozlash: mohiyati, usullari (ekonometrik, stsenariy, ekspert baholash) va sun’iy intellekt hamda Big Data asosida talabni bashoratlash.

10. Rejalashtirishning turlari (strategik, indikativ, biznes-reja) va tarmoq hamda korxona darajasidagi metodologiyasi; texnologik foresight va yo‘l xaritalari (roadmapping).

11. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi: mohiyati, mezoni va ko‘rsatkichlar tizimi.

12. Mehnat unumdorligi, kapital unumdorligi (fond qaytimi), umumiy omil unumdorligi (TFP) va OEE ko‘rsatkichlari, ularni hisoblash usullari; energiya va resurs samaradorligi.

13. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari va innovatsion faoliyat; innovatsion ekotizim (texnoparklar, startaplar, texnologiyalar transferi, intellektual mulk).

14. Sanoat 4.0: mohiyati, tarixiy bosqichlari (1.0–5.0), asosiy texnologiyalari (IIoT, kiberfizik tizimlar, sun’iy intellekt, raqamli egizak, aqlli ishlab chiqarish) va ularning iqtisodiy samarasi.

15. Sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi: bosqichlari, yetuklik modellari, investitsiya samaradorligini baholash (ROI) va sanoat kiberxavfsizligi (IEC 62443, ISO 27001).

16. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari: konsentratsiya, ixtisoslashuv, kooperatsiya, diversifikatsiya, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ko‘rsatkichlari.

17. Mahalliylashtirish: mohiyati, dasturlari va natijalari; sanoat klasterlari, sanoat parklari va kichik hamda o‘rta biznesning sanoatdagi roli.

18. Sanoatda kadrlar siyosati, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash; raqamli ko‘nikmalar, dual ta’lim va sanoat-universitet hamkorligi.

19. Mehnatga haq to‘lash tizimi (tarif tizimi, KPI asosidagi rag‘batlantirish), mehnat bozori va ish bilan bandlik shakllari, mehnat xavfsizligi (OHS).

20. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi, tuzilmasi va baholash usullari.

21. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi (BHMS/IFRS talablariga mos); fond qaytimi, fond sig‘imi va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish.

22. Uskunalarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash; lizing orqali moliyalashtirish, bashoratli ta’mirlash (predictive maintenance) va aktivlarni boshqarish.

23. Xomashyo va yoqilg‘i-energetika resurslarining tasnifi; O‘zbekistonning mineral-xomashyo salohiyati va kritik minerallar bo‘yicha global talab tendensiyalari.

24. Resurslarni tejash strategiyasi, aylanma iqtisodiyot (circular economy) va chiqindisiz texnologiyalar; energiya xavfsizligi va energiya o‘tishi.

25. Aylanma fondlar va aylanma mablag‘lar, ularning tarkibi va aylanish ko‘rsatkichlari; zaxiralarni boshqarish (JIT, ABC/XYZ tahlili) va aylanma kapitalni moliyalashtirish.

26. Sanoat mahsuloti sifatini baholash va boshqarish; standartlashtirish va sertifikatlash (ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001, ISO 50001).

27. Mahsulot raqobatbardoshligi: M. Porter modeli, baholash usullari va eksport talablari (texnik reglamentlar, CE belgisi, JST standartlari).

28. Tannarx: tushunchasi, turlari, elementlari va tuzilmasi, uni belgilovchi omillar; xarajatlarni boshqarish usullari (ABC-costing, target costing, kaizen costing).

29. Foyda, uning shakllanishi va taqsimlanishi; rentabellik ko‘rsatkichlari (ROA, ROE, ROS), ularni oshirish yo‘llari va soliq yukining ta’siri.

30. Narx iqtisodiy kategoriya sifatida, uning vazifalari va turlari; narx shakllanish usullari (xarajatli, bozor, raqobatchilarga asoslangan, dinamik narxlash) va transfer narxlari.

31. Davlatning narx siyosati: narxlarni liberallashtirish, tabiiy monopoliyalar tariflarini tartibga solish va energiya narxlari liberallashuvining sanoat tannarxiga ta’siri.

32. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish tamoyillari va omillari; hududiy sanoat tuzilmasi, erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari va agglomeratsiya iqtisodiyoti.

33. Yashil sanoat va barqaror rivojlanish: BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari, yashil iqtisodiyot siyosati, ESG tamoyillari va yashil moliyalashtirish.

34. Uglerod izi (Scope 1, 2, 3), uglerod bozorlari va CBAM mexanizmining O‘zbekiston eksportiga ta’siri; qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi (ISO 50001).

35. Sanoatning xalqaro integratsiyasi: JST (WTO) qoidalari, mintaqaviy integratsiya (MDH, EOII, Yevropa Ittifoqi GSP+, Markaziy Osiyo hamkorligi) va global qiymat zanjirlaridagi "tabassum egri chizig‘i".

36. Eksport salohiyati va eksport strategiyasi; texnologiyalar transferi, qo‘shma korxonalar va savdo urushlari hamda sanksiyalar sharoitida sanoatning bardoshliligi.

37. Sanoat siyosatining mohiyati va nazariy asoslari (vertikal va gorizontal siyosat); davlat qo‘llab-quvvatlash vositalari va JST qoidalari doirasidagi cheklovlar.

38. Sanoatda investitsiyalarning mohiyati va turlari; investitsiya muhiti va jozibadorligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) va ularning sanoat rivojiga ta’siri.

39. Investitsiya loyihalarini baholash (NPV, IRR, PI, payback period, sezgirlik va stsenariy tahlili) va loyiha moliyasi (project finance, SPV tuzilmasi).

40. Sanoatni moliyalashtirish manbalari (bank kreditlari, lizing, kapital bozori, xalqaro moliya institutlari, davlat investitsiya dasturlari) va investitsiya risklarini boshqarish.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2026-yil 30-martdagi tahrirda). https://lex.uz/uz/docs/-8050769

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-fevraldagi PF-17-son “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-8037362

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-dekabrdagi PQ-397-son “Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Qarori (2024-yil 3-maydagi tahrirda). https://lex.uz/docs/-6696009

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2026-yil 15-yanvardagi tahrirda). https://lex.uz/uz/docs/-6908347

5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (o‘zgartishlar bilan, jumladan 2026-yil 13-iyuldagi O‘RQ-1158-son Qonun). https://lex.uz/uz/acts/-4664142

6. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi O‘RQ-850-son “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/uz/acts/-6518381

7. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahrir), 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonun bilan tasdiqlangan, 2020-yil 1-yanvardan amalda (o‘zgartishlar bilan). https://lex.uz/uz/docs/-4674902

8. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-noyabrdagi O‘RQ-728-son “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi

Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son “Ma’muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2025-yil 29-yanvardagi tahrirda). https://lex.uz/uz/docs/-6540957
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-noyabrdagi PF-198-son “Ayrim sanoat tarmoqlarida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (2025-yil 17-martdagi tahrirda). https://lex.uz/uz/docs/-6669850
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi PQ-126-son “Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (2026-yil 15-yanvardagi tahrirda). https://lex.uz/uz/docs/-6838934
12. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-573-son “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). https://lex.uz/docs/4562834
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (2026-yil 9-fevraldagi tahrirda). https://lex.uz/mact/-4849607
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/8834
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi nutqi. Nyu-York, 2025-yil 23-sentabr. https://president.uz/oz/lists/view/8525
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son qaror bilan kiritilgan o‘zgartirishlar bilan). https://lex.uz/docs/-7851788
17. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 208 b.
18. Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. Biznes-rejalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
19. Xotamov I.S., Madraximova G.R. Sanoat iqtisodiyoti. – Toshkent, 2022. – 252 b.
20. Umarxodjayeva M.G‘., Yaxyayeva I.K. Ishlab chiqarish menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 310 b.

21. Umarxodjayeva M.G‘., Yaxyayeva I.K. Ishlab chiqarish menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 310 b. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/ishlab-chiqarish-m%D0%B5n%D0%B5jm%D0%B5nti
22. Ahmedova M.Sh. Sanoat statistikasi. Darslik. – TDIU. 2020. – 362 b. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/sanoat-statistikasi-5ad2ne5q
23. Usmanova N.Yu. Iqtisodiyot va moliyaviy menejment. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2020. – 364 b. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/iqtisodiyot-va-moliyaviy-menejment
24. Mutalov Sh.A., Tursunov T.T. va boshq. Sanoat ekologiyasi. Darslik. TDIU, 2021. – 126 b. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/sanoat-ekologiyasi
25. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portal;
26. www.miit.uz – O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, Sanoat va Savdo vazirligining rasmiy sayti;
27. www.uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligining rasmiy sayti;
28. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti;
29. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi;
30. www.mfa.uz – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rasmiy sayti.